

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA  
OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

*Kenjayev Fazliddin*

*Andijon davlat universiteti*

*"Tarix" fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lism tizimining rivojlanishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, unga oid davlat qonunlari va amaldagi tadbiqi haqida asosiy ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lism, Ta'lism to`g`risidagi davlat qonunlari, maktab, islohot, yoshlar, maktabgacha ta'lism.

REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION  
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Kenjayev Fazliddin*

Andijan State University, student of "History" faculty

**Abstract:** This article covers the main information about the development of the education system in the Republic of Uzbekistan and its strengthening by law, the reforms implemented in this area, the relevant state laws and their actual implementation.

**Keywords:** Higher Education, State Laws on Education, school, reform, youth, Primary Education.

**Kirish**

Ma'lumki, bugun yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lism tizimidagi o'zgarishlar juda ham ko`zga ko`rinarli darajada yuksak bo`lib, mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lism tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga o`tmoqda. Shu sababli ham, O'zbekiston Respublikasida ta'lism sohasida ko`plab islohotlar amalga oshirilmoqda, bu islohotlar o'quv jarayonini yanada raqobatbardosh va sifatli qilishga yo'naltirilgan. Hususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lismni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lismni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lism texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi<sup>1</sup> mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bu qonun bilan o'quv dasturlari, sinflar soni, o'qituvchilarning malakasi va o'quv jarayonining boshqa ko'rsatkichlari tizimli ravishda yanada yaxshilandi. Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, bevosita oliv ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliv ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini bevosita aks ettiradi. Unda oliv o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lif sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lif platformalarini amaliyotga joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro natijalarga erishish hamda boshqa bir qancha aniq yo'naliishlar tizimli ravishda belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lif jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun dasturi amal vazifasini bajaradi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliv ta'lif muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lif shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari soni esa oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliv ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliv o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliv ta'limga qamrab olish ko'lamenti yanada kengaytirdi. Ta'lif tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygochlari va ta'lif tizimining quyi bo'g'inlari o'tasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliv o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'naliishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi.<sup>2</sup>

Bu islohotlar o'quv yurtlari va maktablar tizimini yanada rivojlantirish, yangi o'quv dasturlarini tasvirlash, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn ta'liming rivojlanishi, pedagogik kadrlarni malakali o'qituvchilarga aylantirish va ularning kasbini yuqori darajada mustahkamlash kabi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi. Yoshlarni sportga bo'lgan diqqatni oshirish, madaniy-ma'naviy tarbiya tizimini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadidagi islohotlar ham ta'lif tizimiga uzviy bog'langan holda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta'lif sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan bo'lib, ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lif sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda, uning maqsadi esa ta'lif sohasidagi munosabatlarni muntazam ravishda tartibga solishdan iborat. Qonunchilik palatasi Kengashining qarori bilan, "Ta'lif to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-so. <https://lex.uz/docs/-4545884> n

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar?view=mediacamp-bostonliqda-bolajak-jurnalist-va-blogerlar-uchun-uch-kunlik-seminar-treninglar-otkazildi>

ishchi guruh tuzildi. Qarorda qonunni “sohada olib borilayotgan islohotlar va bugungi kun talabidan kelib chiqib takomillashtirish” zarurati borligi, shuningdek , 2023-yil aprel oyida Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etilib, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ta’lim mazmunini belgilovchi (ta’lim standartlari, o’quv dasturlari va darsliklarga oid) qator vakolatlari shu markazga o’tkazilgan edi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda bu markaz ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari qatorida aks etmagan. Qonun bundan 3 yil oldin 2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirgan.<sup>3</sup> Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo’yildi, unda belgilangan masofaviy ta’lim haqidagi qoidalar o’quv rejalarini va o’quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko’nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan olishga qaratilgan. Boshqa islohotlar esa, ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash, o’quv dasturlarni modernizatsiya qilish, chet tillarini o’rganishga ko’rsatilgan diqqatni oshirish va yoshlarni kasb-hunar olishga yo’naltirishni uzviy ravishda o‘z ichiga olgan bo‘lib bu islohotlar orqali O‘zbekistonda ta’lim sohasida yanada rivojlanish va yangiliklar kiritilmoqda. Ta’limning ahamiyati dunyoda har bir inson uchun juda muhimdir. Ta’lim, insonning shaxsiy va professional rivojlanishida asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning mustaqil fikr-mulohazalarini shakllantirish, yangi bilim va ko’nikmalar o’rganish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va jamiyatga foydali bo‘lish uchun zarur hisoblanadi.Ta’lim orqali insonlar o‘zlarini rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va o‘zlarining potentsialini o’rganishlari mumkin bo‘lib, bu esa ularning insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni jamiyatda faol a’zo bo‘lib ishtirok etishga tayyorlaydi. Ta’lim jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham juda katta ta’sir qiladi. O‘z vaqtida rivojlanayotgan jamiyatda ta’lim sohasidagi yangiliklar va innovatsiyalar ommaga foyda keltiradi va mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ta’lim insonlarga ma’rifat, adabiyot, huquq va boshqa huquqiy bilimlarni o’rgatadi va ularni o‘zaro munosabatlardaadolatli, insofli va hurmatli bo‘lishga intiladi. Shuningdek, ta’lim insonlarga mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi yechim topishga yordam beradi. Jumladan, ta’limning ahamiyati juda katta va uning o‘zgaruvchan roli insonlar va jamiyat uchun juda muhim hisoblanib, har bir inson ta’limga duch kelishi va o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishga harakat qilishi zarur.

### Xulosa

Xulosa o’rnida, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o’zining dolzarbliji hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko’lamda davom ettirish davr talabi hisoblanadi. Chunki ta’lim bu yosh avlodning buyuk kelajagi va porloq ertasi uchun zamin yaratuvchi yagona kuchli quroldir.

---

<sup>3</sup> <https://kun.uz/news/2023/09/21/talim-togrisidagi-qonunni-takomillashtirish-boyicha-ishchi-guruh-tuzildi>

Qachonki ta`lim yuksalsagina , yurda katta o`zgarishlar, innovatsion yangiliklar va aholini yashash sharoiti uchun yengilliklar ortib boradi.

### **Foydalaniman Adabiyotlar**

1. Khaydarov S.A. (2020). Pedagogic and didactic possibilities of using miniature works in historical lessons. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(8). 1475-1792
2. Mirziyoev Sh M “Bilimli avlod – buyuk kelajakning , tadbirkor xalq – farovon hayotning, do,,stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O,,zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag,,ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi “Xalq so'zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o,,quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to,,g,,risida” gi PF-4958 sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo`shimcha chora- tadbirlar to`g`risida”gi qarori 2020-yil 6 noyabr
5. Khaydarov S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Page 41-43.